

## **PROKURATURA ORGANLARINING TERGOV TUZILMALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

***Indiaminov Djurabek Sayitovich,***

*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Prokuratura organlari tergov  
tarmoqlari faoliyati ustidan nazorat boshqarmasi prokurori  
mr.lawyer2011@mail.ru*

Har bir huquqiy davlatda qonun ustuvorligini ta'minlovchi asosiy davlat organi, shubhasiz, prokuratura hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar, mustahkam huquqiy davlat barpo etish yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlarning bunyodkori bo'lmish davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning shaxsan o'zlari prokuratura tizimiga e'tibor qaratishining o'zi, ushbu sohani takomillashtirish qanchalar dolzarbligini anglatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish" deb nomlangan 17-maqсадini hayotga tadbiiq qilishning ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalari, amalga oshirish mexanizmlari ko'rsatib o'tilgan.

Xususan, qonuniylikni qat'iy ta'minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda "Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar" tamoyilini bosh mezonga aylantirishda prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat hamda jamoatchilik nazoratini o'zaro uyg'unlashtiruvchi yangi tizim joriy etish, prokuratura organlari faoliyati oshkoraligini va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish zarurligi qayd qilingan.

Shuningdek, tergov faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish, axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyatini yanada kuchaytirish maqsadida tergov faoliyatini nazorat qilish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan yangi turdagi jinoyatlar, shu jumladan kiberjinoyatlarni fosh etish bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini isloh qilish, qo'shimcha kuch va vositalarni jalb qilish hamda ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish jarayonida fuqarolarning qadr-qimmatini va erkinligini himoya qilish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarni hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanishda murojaatlar bilan ishlash sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan holda aholi uchun uyidan turib, tunu-kun to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkoniyatini yaratish, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish institutini isloh qilish va jinoyat haqidagi xabarlarni ro'yxatga olish jarayonini to'liq raqamlashtirish zarurligi qayd qilingan.

“20 yil avval qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi “Prokuratura to'g'risida”gi Qonun o'rniga mamlakatda qonuniylikni qat'iy ta'minlaydigan, ochiq va adolatli yangi prokuraturaning huquqiy asoslarini yaratish lozim. Fuqarolar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish maqsadida ushlab turilgan shaxslarni hisobga olishning yagona elektron reestri ishga tushiriladi. Ishga oid ma'lumotlarni reestrda kiritmaslik ushlab turish va undan keyingi barcha harakatlarni noqonuniy deb topishga asos bo'ladi”.

Mamlakatimizda tergov faoliyatida “Inson qadri uchun” degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etishni tashkil etish tergov organlarining faoliyatini qonun ustuvorligini va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash tamoyili asosida takomillashtirish muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va zamon talablariga javob beradigan tergov sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini tubdan oshirish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura tuzilmalarini isloh qilish yo'lida istiqbolli rejalar haqida gapirar ekanmiz, avvalo, prokuratura tizimidagi shtatlar soni haqida so'z yuritmasak, albatta, noto'g'ri bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi yildan-yilga jadal rivojlanayotgan, buyuk davlatlarda aholi soni kamayib borayotgan bir vaqtda aholisi soni har yili 1 milliondan ziyodga ortayotgan davlat hisoblanadi. Aholi sonining yildan-yilga ortib borishi bevosita prokuratura organlarida ham ishlar ko'payishiga olib keladi. Shu jihatlarni hisobga olib, shtat birliklari sonini mazkur organdagi ishlar hajmi hamda murojaatlar sonidan kelib chiqib ko'paytirish maqsadga muvofiq va bu prokuratura organlari tomonidan ishlarni sifatli va o'z vaqtida ko'rishga zamin yaratadi.

Shuningdek, prokuratura organlarida ish hajmiga mutanosib ravishda oylik ish haqqini oshirish va bu kelajakda tizimning jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X s'ezdida e'lon qilgan saylovoldi dasturi. 2021-yil 9-sentyabr. Xalq so'zi gazetasi;

4. O.Madaliyev, A.Ergashev. "Prokuror nazorati" o'quv uslubiy qo'llanma (lotin alifbosi). – T. TDYI nashriyoti, 2010-y.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020-yil 25-yanvar. Xalq so'zi gazetasi.